



O'ZBEKISTONDA KADRLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI SIFATINI YAXSHILASHDA UY XO'JALIKLARINING TUTGAN O'RNI

Berdiev G'ayrat Ibragimovich¹, Eshqulova Hilola Shoyimqul qizi²
Safiyeva Nigora Nurmuhammadovna³, To'rayeva Gulizahro
Qahhorovna⁴, Isoxonova Go'zal Ulug'bek qizi⁵

¹ Guliston davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, PhD

^{2,3,4} Guliston davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchisi

⁵ Guliston davlat universiteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7188346>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 12th October 2022

KEY WORDS

inson kapitali, aqlli ta'lim, aqlli tibbiyot, investitsiya, innovatsion markazlar, sanoat-tadqiqot konsorsiumlar, texnologiyalar, transfert markazlari, ilmiy texnologik park, texnopolislar, inson taraqqiyoti indeksi

ABSTRACT

Maqolada uy xo'jaliklari doirasida inson kapitalining shakllanishi va jamg'arilishi keng yoritilgan. Uy xo'jaliklarining yaratilgan inson kapitalini doimo rivojlanib borishidagi roli va ahamiyatini yanada kengaytirish imkoniyatlariga alohida urg'u berilgan. Maqolada berilgan takliflar istiqbolda mamlakatimiz uchun yuqori malakali kadrlar safining kengayishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi soni o'rtacha yillik 1,7 foizga yoki 500 ming kishidan ko'proqqa o'smoqda. Bu holat, albatta yaqin istiqbolda mamlakatimizda mehnat resurslarining tanqisligi kuzatilmasligidan dalolat bersada, boshqa bir tomondan "inson kapitali" sifatini yaxshilash va "yaxshi ish o'rinlari" yaratish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarishni taqozo qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi.

Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi.¹

Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.

Uy xo'jaligi doirasida eng muhim iqtisodiy resurslardan biri – ishchi kuchining takror ishlab chiqarish jarayoni amalga oshuvchi yagona iqtisodiy sub'ektdir. Aynan uy xo'jaliklari doirasida inson kapitalining shakllanishi va jamg'arilishi amalga oshadi. Uy xo'jaliklarining takror ishlab chiqarish funksiyasi tabiiy ishlab chiqarish (farzand ko'rish va parvarishlash) va inson kapitalini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Bu kapitalning yaratilishini, dastlabki kapital

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси - Тошкент. // Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.



jamg'arish, deb qarash mumkin va uning asosiy xarajatlari uy xo'jaliklari zimmasiga tushadi. Dastlabki jamg'arishdagi kapital – yaratilgan, ishchi kuchida gavdalangan kapital bo'lib, uni mehnat resurslari, ya'ni mehnat yoshiga etganlarning o'sishini tavsiflaydi. Dastlabki kapitalning shakllanishi bolalarni tug'ulgach, parvarishlanishi, ta'lim-tarbiya berilib, voyaga etkazilishi davomidagi xarajatlar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bu xarajatlar otanalar, davlat va nodavlat tashkilotlarning xarajatlaridan iborat. Biroq, ularning tarkibida oilalarning xarajatlari salmoqli.

Inson kapitalining dastlabki jamg'arilishida faqat xonadonlar emas, balki davlat ham ishtirok etadi, ya'ni u bolalarga o'z hisobidan bepul ta'lim-tarbiya beradi va tibbiyot xizmatlarini ko'rsatadi. Bu xizmatlar xarajati bolalarga tatbiqan alohida hisoblanmaydi, lekin bolalarni ulardan bahra olishi aniq. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat byudjetidan ta'lim uchun ajratilgan xarajatlar davlat byudjeti xarajatlarining salmoqli qismini tashkil etmoqda. Jumladan, 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining byudjet mablag'larining taqsimlanish dinamikasida Maktabgacha ta'lim vazirligiga 6491546,0 mln so'm miqdoridagi mablag'lar rivojlantirish dasturlari uchun, maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi uchun, Davlat xususiy sherikchilik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga subsidiyalar ajratish, bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash xarajatlari, obyektlarni loyihalashtirish, qurish va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar uchun sarflanishi keltirib

o'tilgan. Xalq ta'limi vazirligiga 25816065,2 mln so'm ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu mablag' rivojlantirish dasturlari uchun, Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi uchun, Xalq ta'limi muassasalarini keng polosali internet tarmog'iga ulash uchun, obyektlarni loyihalashtirish, qurish va jihozlash uchun kapital qo'yilmalariga va Respublika maqsadli kitob jamg'armasiga transfertlarga yo'naltiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga rivojlantirish dasturlari uchun, davlat – xususiy sheriklik va davlat oliy ta'lim tashkilotlarining buyurtmalari asosida talabalar turar joyini barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiyalar, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida beriladigan har oylik subsidiyalar uchun 4146610,7 mln so'm ajratilishi belgilanganligiga guvohi' bolishimiz mumkin². Yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatkichlar va ularni sarflash ko'zda tutilgan yo'nalishlar mamlakatimizda kadrlar salohiyatini oshirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi va pirovardida bilimli va malakali inson kapitaliga erishishda o'zining ulkan hissasini qo'shadi deb ishonch bilan ayta olamiz.

Yaratilgan inson kapitali doimo rivojlanib borishi zarur, aks holda barqaror iqtisodiy o'sish bo'lmaydi. Shu sababli bu kapital uzluksiz investitsiyalarni talab qiladi. "Inson kapitaliga investitsiyalar" atamasi sifatida yangi ishchi kuchini tayyorlashga yo'naltirilgan xarajatlar tushuniladi.

² 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni, 30.12.2021 yildagi O'RQ – 742-son. 5-ilova.




G.Bekker inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar tarkibiga ta'lim, ish joyidagi tayyorgarlik, tibbiy xizmat va ilmiy tadqiqot, muqobil migratsiya, ish joyi va ish haqi to'g'risida ma'lumot olish xarajatlarini kiritadi. Inson kapitali uchun ta'limdan tashqari to'plangan ish tajribasi ham muhim, chunki mehnat faoliyati davrida olingan malaka va ish mahorati kapitali samaradorligiga ta'sir etmay qolmaydi. Ishchilar uchun ishlab chiqarishdagi umumiy tayyorgarlik yuqori ish haqi olish imkonini bersa, maxsus tayyorgarlik korxonalariga qo'shimcha foyda keltiradi. Investitsiyalar bergan natija odatdagi o'rtacha ish haqi bilan malakali kishilar ish haqi o'rtasidagi farqqa teng deb qaraladi. Inson kapitalini shakllantirish borasida uy xo'jaliklarining takror ishlab chiqarish funksiyasi 1-rasmda ifodalangan.

Biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari (Al Xorazmiy, Beruniy va Ibn Sino) bo'ladigan etuk insonlarni tarbiyalash

masalasiga, afsuski, etarlicha ahamiyat bermadik. Xolbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boyluk ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga etkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan etgan. Biz yagona bir maqsadni ko'zda tutmoqdamiz: "Ya'ni O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"³.

1-Rasm. Inson kapitalini shakllantirish borasida uy xo'jaligining funksiyalari

Raqobatbardosh bo'lish uchun "aqli tibbiyot" va "aqli ta'lim" konsepsiyalarini hayotga izchil joriy etish, farzandlarimizning intellektual qobiliyatini rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishimiz zarur.



³Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Т. // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF – 60 – sonli farmoni asosida 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiyada asosan INSON kapitali va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillarga urg'u berilgan bo'lib, faol fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib ular quyidagilardan iborat:

- Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Yuqorida keltirib o'tilgan yo'nalishlar asosida quyidagi ishlarni 2022 – 2026 yillar mobaynida amalga oshirish ko'zda tutilganidir.

1. 2026 yilgacha aholining barcha muhtoj qatlamlari ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam oladilar;
2. Qoraqolpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi 1-4- sinf o'quvchilari davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul

ovqatlanish (nonushta yoki tushlik) bilan ta'minlanadi.

3. 2023 yil 1 yanvardan boshlab pensiyani hisob kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblashbazaviy miqdoringa 10 barobaridan 12 barobarigacha oshiriladi.

Shuningdek, taraqqiyot strategiyasida ta'lim sohasini isloh qilish maqsadi bir qator ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilganidir

1. 1 apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 millin so'mgacha bo'lgan to'lovlari daromad solig'idan ozod etilishi;

2. O'rta ta'lim tizimini zamonaviy ta'lim standartlariga moslashtirish uchun umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 605 milliard so'm ajratilishi va 141 mingta yangi o'quv o'rinlari yaratilib, ularning umumiy soni 2026 yil yakuniga qadar 6,4 millionga yetkazilishi kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, taraqqiyot strategiyasi Yangi O'zbekistonni barpo etish bilan birgalikda INSON qadr-qimmatini eng ustuvor o'rinda tutib, mamlakatimiz rivojini yangi bosqichini boshlab berdi. Yurtboshimiz ning o'z lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma malisidagi nutqida aytib o'tganlaridek: "Biz bundan buyon faoliyatimizni **"inson – jamiyat – davlat"** degan yangi tamoyil asosida tashkil etamiz⁴. Shuningdek, Taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimiga, hususan maktabgacha ta'lim tizimiga kuchli e'tibor qaratish lozimligi keltirib o'tilganidir. Bog'cha tizimini maktab

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimiga kirishish tantanali

marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. Toshkent 2021.



ta'limi bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarni maktabga tayyorlash sifatini oshirish, hududlarda yangi bog'chalar qurib foydalanishga topshirish, shu bilan bir qatorda barcha maktabgacha ta'lim muassasalarini har yili 2 million nusxadagi zamon talablariga mos o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, muassasalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash va ularning mahoratini muntazam oshirib borishni yo'lga qo'yish va yana shu kabi bir qator islohotlarni amalga oshirish maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh etib, uni rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishida albatta o'zining yuksak natijasini ko'rsatmasdan qolmaydi. Taraqqiyot strategiyasi maktabgacha ta'lim tizimi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni tatbiq etish farzandlarimizni har tomonlama 6intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etish uchun muhim dasturilamaldir.

Mutaxassislarining tadqiqotlariga ko'ra, inson butun umri davomida oladigan barcha ma'lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan muddatda qabul qiladi. Ilk hayotiy tasavvurlar, inson tafakqurida poydevor bo'luvchi tushunchalar bola ongida aynan shu payt oralig'ida singadi. Demak, o'g'il-qizlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning kelajakda baxtli bo'lishida nafaqat oila, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalari ham muhim o'rin egallaydi. Shu munosabat bilan bugungi kunda xalq ta'limi va maktabgacha ta'lim vazirliklar muassasalari oldida bolalarni "aqli ta'lim"

va "aqli tibbiyot" dasturi asosida tarbiyalashda quyidagilarga katta e'tibor qaratish lozim:

- maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarning qobiliyat sohasini aniqlash;
- bolalar qobilyatini har yili rivojlantirib borish va oddiy maishiy ingliz tilini o'rgatish;
- umumiy o'rta ta'limda va litseylarda yangi bilimlar berish bilan birga qobiliyatni rivojlanish omillarini har yil xar bir o'quvchi uchun tahlil qilish;
- bilimlarni va qobiliyatni ishlatib boy bo'lishga qiziqtirish;
- Yozma va og'zaki ingliz tilini rivojlantirish.

Germaniyada 10-12 yoshdan boshlab iqtidorli bolalarni ajratib olib Berlin Anna-LinCh-Schute maktabida maxsus metodikalar orqali qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Bularni nomi; "Evropa iqtisodiyotini 80 umidlari". Shunday iqtidorli bolalarni "Bizning buyuk kelajagimiz" deb Koreya, Singapur, AQSH, Avstraliya, XXR va boshqa rivojlangan davlatlarda xam tayyorlashayapti. O'zbekistonda ham 100 iqtidorli bolalarni ajratib, "O'zbekistonni 100 ilm-fan va innovatsion rivojlanish umidlari"ni tarbiyalashni boshlash maqsadga muvofiq. Nobel mukofoti sovrindori Jeyms Xekman, kichik yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlari hamda qat'iyatlilik, ishonch, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi ijtimoiy madaniy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan investitsiya katta yoshdagilar uchun amalga oshiriladigan turli hil ijtimoiy dasturlar va hatto mamlakat infratuzilmasini shakllantirishdan ko'ra yuqori ijtimoiy-iqtisodiy qaytim ta'minlashini ta'kidlaydi. Yosh bolalarning rivojlanishi va ta'lim dasturlarini qo'llab-quvvatlash orqali ota-



onalarning qilgan investitsiyalarini to'ldirib, bolalar, ota-ona va jamiyat uchun katta foyda ta'minlanadi. Bu ikki xil ko'rinishda ya'ni joriy foyda - otonalarning ish bilan bandligi va daromadining ortishi, hamda istiqboldagi foyda - ulg'ayganda ta'limning keyingi bosqichlariga jalb etilish darajasining ortishi va daromadining ko'payishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mavjud tadqiqotlarnig ko'rsatishicha, kichik bolalarning ta'limiga qilingan 1\$lik investitsiya jamiyat uchun o'rtacha 8,6\$ foyda keltiradi.

Mamlakatimizda uy xo'jaliklarining aksariyat qismi o'z a'zolarining ta'lim olishlari, ularning sog'liqlari uchun sezilarli darajada investitsiyalar kiritish imkoniga ega emaslar. Ijtimoiy xizmatlarning asosiy qismini ular davlat byudjeti mablag'lari hisobidan oladilar. Bundan tashqari rejali iqtisodiyot davrida tarbiya topgan katta yoshdagi kishilardan tarkib topgan uy xo'jaliklarining yangicha iqtisodiy vaziyatga ko'nikish jarayoni juda qiyin kechmoqla.

AQSH tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga qaraganda, mamlakatda kichik yoshdagi bolalarning ta'limi doirasida amalga oshirilgan so'nggi dasturning samarasi, xarajatlarini chiqarib tashlaganda, har bir bola boshiga 9166\$ - 30851\$ atrofida baholangan. SHuningdek, agar barcha oilalar farzandlarining maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi yuqori daromadli oilalar darajasiga etsa, uzoq muddatli istiqbolda YAIMning 0,16-0,44 % oshishiga olib kelishini ko'rsatishgan.⁵

Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni

talab qilmoqda. Bu boradagi ishlar bugun izchil va tizimli davom etmoqda. Davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoevning 2017 yil 17 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish to'g'risidagi farmonida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o'rnini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo'llab quvvatlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag'batlantirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Agar iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan davlat tajribasiga nazar tashlasak bu yuksalish zamirida ilm-fani tubdan rivojlantirish turganligiga guvoh bo'lamiz. Misol uchun Yaponiyani olaylik. Ikkinchi jahon urushidan so'ng "Kunchiqar yurt" judayam og'ir axvolga tushib qolgan edi. O'sha vaqtda bu o'lkada asosiy e'tibor insonning boshini to'ydirish, ya'ni unga kuchli bilim berishga qaratildi. Natijada ilm-fan tarqqiyotiga ajratilgan sarmoya bugungi kungacha o'zining ijobiy samarasini ko'rsatib kelayapti. Bugun ilf-fanga qaratilayotgan e'tibor ham uzoqni ko'ra bilish porloq kelajak sari tashlangan qadamdir⁶.

Rivojlangan mamlakatlarda mamlakat YAIM hajmini shakllanishida innovatsiyaning hissasi 60-70%ni, Rossiyada 10%ni tashkil etmoqda.⁷ Bugungi kunda asosiy vazifamiz - O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini innovatsion salohiyatini rivojlangan mamlakatlar darajasiga chiqarish bo'lib hisoblanadi. Jahondagi globalizatsiya

⁵ www.cia.gov/us

⁶ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга

Мурожаатномаси. Т. // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

⁷ www.worldbank.org



jarayonlarini rivojlanishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish kabi masalalar tahlili shuni isbotlamoqdaki, mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy o'rinni Oliy ta'lim tizimida birinchi navbatda ta'limni ishlab chiqaruvchi va uni keng xalq ommasiga targ'ib qiluvchi OTM (oliy ta'lim muassasalari) egallaydi. Bu faoliyat turi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda chunki ta'lim taraqqiyoti juda tez jadallashmoqda va unda ilgarigi jamg'arilgan va to'plangan bilim juda tez ma'naviy eskirmoqda. Bu milliy iqtisodiyotni bugungi kundagi rivojlanish darajasiga, uning talablariga mos ravishda mavjud oliy ta'lim tizimi muassasalarida modernizatsiya ishlarini amalga oshirishni talab etadi. Bu mavjud ilmiy salohiyatdan samarali foydalanib oliy ta'lim muassasani o'quv-tarbiya jarayonida ijodiy - innovatsion rivojlanish yo'nalishida taraqqiy etishni talab etadi.

SHu munosabat bilan bugungi kunda OTM oldida yoshlarni "aqli ta'lim" dasturi asosida yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda quyidagilarga katta e'tibor qaratish lozim:

- OTM bakalavriatida abituriytlar uchun test sinovlarni adolatlantirish: barcha OTMga (ijodiy OTMdan tashqari) qabul ballari yagona bo'lishi va bir yildan so'ng mutahassisliklarga bo'linishini ta'minlash;
- 2-bosqichdan boshlab horijiy innovatsiyalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishga o'rgatish;
- bitiruv malakaviy ishlarida (BMI) ularni samarali joriy etishni tashkil etish;
- BMIning ingliz tilida yozishga o'rgatish;
- BMIGA xomiyalar topib, kichik korxonalar ochib, ustoz va shogird tizimini

joriy etish orqali ularning manfaatdorligini oshirish;

- Magistraturada o'qitishlarni to'liq ingliz tiliga o'tkazish (Koreya, Yaponiya, Germaniya tajribasi);
- Ustoz-shogird tizimi orqali xorijiy innovatsiyalarni modernizatsiyalash, xomiyalar yordamida ularni joriy etish;
- Doktoranturada (PhD, DsC) yangi ilmiy g'oyalar va innovatsiyalarni ixtiro qilish, samarali joriy etish va ularni eksport qilish.

OTMni innovatsiyalar asosida samarali rivojlanishida, innovatsion infratuzilmani vujudga keltirish muhim omil hisoblanadi. Bugungi jahon ta'lim tizimi bozorida nafaqatgina ta'lim, ilmiy-tadqiqot bo'g'inlariga ega va shu bilan birga universitetlarga innovatsion faoliyatini olib borish imkoniyatlarini yaratuvchi sanoat bilan hamkorlikdagi tadqiqot markazlari, innovatsion texnologik markazlar, sanoat-tadqiqot konsorsiumlar, texnologiyalar transfert markazlari, ilmiy texnologik park, texnopolislar shaklidagi birlashmalar vujudga kelgan. Bunday shakldagi OTM birlashmalari Universitetlarning ta'lim va ilmiy tadqiqot faoliyatiga qo'shimcha "uchinchi missiyasi" - aniq ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va shu bilan birga ularni ko'p kanalli moliyalash tizimi orqali barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu turdagi universitet birlashmalari bugungi kunda AQSH, Evropa, Yaponiya va ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Inson kapitali sifatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri bu aholi turmush darajasi va uning sifatini tavsiflovchi BMT ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan, inson taraqqiyoti indeksi (ITI) alohida o'rin egallaydi. Yagona metodologiya bo'yicha ITI ko'rsatkichining ishlab chiqilish bu



ko'rsatkich dinamikasini nafaqat alohida mamlakatlar bo'yicha balki mamlakat ichidagi hududlar bo'yicha ham aholi turmush darajasi va sifatini qiyoslash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasini innovatsion iqtisodiyotga o'tish davrida "aqli ish o'rinlari"ga mos innovatsion kadrlarni ya'ni yuqori innovatsion salohiyatga ega bo'lgan kadrlarni tayorlashni ifoda etadi. Bunday innovatsion ishchilarning asosiy tavsifi quyidagilardan iborat:

- Yuqori professional malaka darajasi va o'z bilim va malaka darajasini doimiy oshirishga ehtiyoj;
- Yangiliklarni his etishda, kamchiliklarni ko'rish imkoniyatlari va

ularni bartaraf etish yo'llarini topishda nomoyon bo'ladigan ijodiy qobiliyatlar;

- Ishni tashkil etishning yangi texnologik usullari va shakllarini o'zlashtirish qobiliyati va yuqori texnik-texnologik madaniyat;
- O'ziga hos psixologik, ma'naviy-estetik xususiyatlar – moslashish, fikrlashda tasavvur etish, maqsadga yo'nalganlik, vijdonlilik, mehnatsevarlik. Ta'kidlab o'tilgan mezonlar bo'yicha "aqli ish o'rinlari"ga mos innovatsion kadrlarni quyidagicha klassifikatsiyasini qilish mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida "aqli ish o'rinlari"ga mos innovatsion kadrlarni tayorlash klassifikatsiyasi

Mezonlar	Innovatsion kadrlar
Innovatsion tipdagi boshqaruv kadrlarga tegishligiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> • Mulkdor-tadbirkorlar; • Barcha darajadagi menejerlar (novator-liderlar); • Innovatsion menejerlar
Innovatsion jarayonlarda ishtirok etish darajasiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> • Novatorlar; • Innovatorlar; • Innovatsion jarayonlarga xizmat ko'rsatuvchi va uni tartibga soluvchi ishchilar
Faoliyat sohasiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> • Fan va ta'lim sohasi xodimlari; • Iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlari ishchilari; • Iqtisodiyotning zamonaviy texnologiyalarga ega an'anaviy tarmoq ishchilari

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini investitsiyalash alohida shaxs, oila uchun foyda keltirish bilan birga butun jamiyat uchun yuqori darajada ijtimoiy va iqtisodiy qiymat yaratadi. Bugun inson kapitaliga

qilingan investitsiya uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotimiz uchun yuqori malakali kadrlar safining kengayishi va ularning daromadlarining ortishiga xizmat qiladi.

References:

1. 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni, 30.12.2021 yildagi O'RQ – 742-son. 5-ilova



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. Toshkent 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - Toshkent. // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - Toshkent. // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.
5. Abulqosimov H. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. – T.: Akademiya, 2006. – 347-b.
6. Bekker G. Ekonomika semi i makro povedenie // SSHA: ekonomika, politika, ideologiya. - 1994.
7. Makkonel K.R., Bryu S.P.: Ekonomiks v 2x tomax: Printsipy, problemy i politika-M.:INFRA-M, 2003.-S.386
8. O'zbekiston raqamlarda-statistik to'plam. 2017 y. B-49.
9. www.cia.gov.us
10. www.worldbank.org
11. <https://yuz.uz>
12. <https://review.uz>
13. <https://lex.uz>
14. <https://uz.wikisko.ru>